

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil).– 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TARIX FANLARI

O'ZBEKISTON VA TURKIY MAMLAKATLAR IQTISODIY HAMKORLIGINING DAVRIY MATBUOT MANBALARIDA YORITILISHI

Mamatov Behruz Salimboy o'g'li

Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilot doirasidagi va uning tarkibidagi mamlakatlar bilan 1991-2026-yillardagi tashqi iqtisodiy aloqalari yoritilgan davriy matbuot va jurnal maqolalari hamda materiallarining manbashunoslik tahlili haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Turkiy davlatlar tashkiloti, turkiy dunyo, O'zbekiston, davriy matbuot manbalari, jurnallar, xalqaro iqtisodiy hamkorlik tarixi, manbashunoslik.

COVERAGE OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND TURKISH COUNTRIES IN PERIODICAL PRESS SOURCES

Mamatov Behruz Salimboy o'glu

Research doctoral student at Tashkent State Technical University

Annotation. The article deals with the source analysis of periodical and magazine articles and materials covering Uzbekistan's foreign economic relations with the countries within the Turkic States Organization and its constituent countries in 1991-2026.

Keywords: Turkic States Organization, Turkic world, Uzbekistan, periodical press sources, magazines, history of international economic cooperation, source analysis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ya-dif-y2026v2i16/n06>

O'zbekistonning turkiy tilli davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari tarixini o'rganishda manbalar guruhi tasnifiga nashrdan chiqarilgan O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarboyjon Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi matbuot gazetalari maqolalari tahlilga tortib o'rganildi. Chop etilgan gazeta va jurnal maqolalarida asosan turkiy dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlik jarayonlari va natijalari batafsil yoritib berilganligi davriy matbuot materiallarining qiymatini yanada oshiradi.

Biroq, Ozarboyjon va Qozog'iston davriy matbuot nashrlari milliy davlatchilik nuqtayi nazaridan yoritilganligi sababli to'la-to'kis xolis manba bo'la olmaydi. Ozarboyjon va Qozog'iston davriy matbuot nashrlari mazkur tadqiqotda ma'lumotlarni to'ldirish, qiyoslash va solishtirib tahlil qilishda yordamchi manba vazifasini o'taydi.

Shuningdek, Rossiya matbuotida e'lon qilingan davriy materiallar uchinchi tomon qarashlarini o'zida ko'proq ifodalashi, turkiy davlatlar birligidan ko'ra, o'z geosiyosiy va geoiqtisodiy pozitsiyalarining ustun ko'rilishi jihatlariga ega. Shu sababli biz ushbu tadqiqotda Rossiya davriy matbuot materiallariga nisbatan tanqidiy solishtirish usulini qo'llashni va uchinchi tomon qarashlarini o'rganishni maqsadga muvofiq deb topdik.

O'zbekiston matbuoti. 2016-yilgacha ommaviy axborot vositalarida maqolalar asosan siyosiy kontekstda, ma'lum darajada senzuralashgan holatda e'lon qilinar edi. Faqatgina davlatlalaro rasmiy tashriflar va bitimlar ularda aks ettirilgan. Biroq 1996-yilda Turkiy tilli

davlatlar rahbarlarining Toshkentda bo'lib o'tgan sammiti tafsilotlarining va Toshkent deklaratsiyasining matbuotda e'lon qilinishi [1] muhim tarixiy ahamiyatga ega hodisa edi. 2000-yildan keyin turkiy tilli davlatlar hamkorligini davriy nashrlarda chiqarish asosan to'xtadi. Turkiy dunyo mamlakatlarining iqtisodiy aloqalari, umumiy olganda "Turkiy dunyo" tushunchasi keng tarzda milliy matbuotda asosan 2019-yildan keyin keng yoritila boshlangan.

1991 – 2026-yillar oralig'ida "Xalq so'zi", "O'zbekiston ovozi", "Правда востока", "XXI asr", "Yangi O'zbekiston" kabi bir qator davriy matbuot materiallarida e'lon qilib borilgan maqolalar O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari, shu jumladan Turkiya, Ozarboyjon hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, 1991-yil 1-yanvardan nashr qilina boshlangan "Xalq so'zi" gazetasida O'zbekistonning turkiy dunyo mamlakatlari bilan amalga oshirilgan diplomatik aloqalari, xalqaro bitimlar va kelishuvlari, iqtisodiy forumlar va ularning natijalari haqida axborotlar berib borilgan. Ular orasida O'zbekistonning TDTga a'zo bo'lishi haqidagi xabarlar e'lon qilingan maqolalar alohida ahamiyatga molik [2].

2020-yilning 25-yanvardan chiqa boshlagan "Yangi O'zbekiston" gazetasida TDT a'zosiga aylangan O'zbekistonning tashkilot doirasidagi tashqi hamkorlik istiqbollari borasida tahliliy maqolalar chop etib borilgan. Gazetaning birgina 2022-yilning noyabr oyi sonlarida ketma-ket bir necha bora TDT bilan bog'liq tarixiy jarayonlar yoritib berilgan maqolalar e'lon qilingan: "Turkiy davlatlar tashkiloti – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi" [3], "Turkiy davlatlar tashkiloti: birinchi sammit, yangi ustuvorlik va imkoniyatlar" [4], "Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari" [5], "Turkiy dunyoning yagona transport Makoni" [6] nomli maqolalar va boshqalar shular jumlasidandir.

Qozog'iston matbuoti. Qozog'iston Respublikasida 1931-yildan beri nashr qilinib kelinayotgan Qarag'anda viloyat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yorituvchi "Ortalyq Qazaqstan", 1936-yildan beri chop etib kelinayotgan "Вечерний Алматы", respublikadagi iqtisodiy masalalarga oid xabarlarni taqdim qilib boruvchi "Деловой Казахстан" gazetalarning 2019 – 2025-yillardagi soni turkiy tilli davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik tarixini o'rganishda va qiyosiy tahlil qilishda muhim matbuot manbasi vazifasi o'taydi.

Ozarboyjon matbuoti. Ozarboyjonda 1906-yildan chiqa boshlagan "Бакинский рабочий" ("Boku ishchisi") gazetasida turkiy dunyo davlatlari iqtisodiy aloqalarini yoritib beruvchi maqolalar doimiy ravishda e'lon qilib boriladi [7]. Ushbu gazetaning 2024-yil 123-sonida tarix fanlari doktori, Toshkent Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Siyosatshunoslik kafedrasida dotsenti R.Tursunova bilan suhbat e'lon qilinganligi alohida ahamiyatga molik. Unda R.Tursunova TDT iqtisodiy hamkorligining transport, bojxona va savdo sohasidagi kamchiliklari to'g'risida o'z fikrlarini ma'lum qilgan: "Hozirgi kunda turkiy dunyoda eng ko'p muammolar transport va bojxona sohalarida kuzatilmoqda. Bu muammolar tashkilotga a'zo davlatlarning transport, tranzit va bojxona tartib-qoidalari sohasidagi qonunchiligi va amaliyotidagi tafovutlardan kelib chiqayotgani ommaviy axborot vositalarida tez-tez ta'kidlanmoqda" [8]. O'zbekistonlik ekspertlarning sohaga oid muammolar bo'yicha bildirgan fikrlari chet el matbuotida e'lon qilinishi hamkorlik aloqalarining yangi darajaga ko'tarilayotganligiga dalil bo'la oladi.

1919-yildan beri nashr qilinadigan "Xalq qəzeti" nomli bosma ommaviy axborot vositasi tahririyati tomonidan Ozarboyjon Respublikasida ro'y berib kelayotgan siyosiy, ijtimoiy,

iqtisodiy masalalar yoritiluvchi xabarlar e'lon qilib boriladi. Ushbu gazetaning 1991 – 2026-yillardagi sonlari Ozarboyjon va O'zbekiston aloqalari hamda TDT doirasidagi iqtisodiy hamkorlikning muhim jihatlariga oid davriy matbuot manbasi vazifasini bajaradi. Gazetaning 2023-yil 66-sonida “Turkiy davlatlar bir-biridan kuch olmoqda” [9], 2024-yil 106-sonida “Turk davlatlarining umumiy investitsiya manbai” [10], 2025-yil 216-sonida “Turkiy Davlatlar Ittifoqi Yevroosiyodagi yangi kuch markazidir” [11] kabi ko'plab tahliliy maqolalarida iqtisodiy tarixni yoritib beruvchi ma'lumotlar o'rin olgan.

Ozarboyjon Prezidenti G.Aliyev 1995-yildagi turkiy tilli davlatlar rahbarlarining Bishkek sammiti yakunlari haqida “Азербайджан” gazetasi muhbiriga bergan intervyusida turkiy mamlakatlar bilan energetik hamkorlik, shu bilan birga iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga undovchi quyidagi fikrlar bildiradi: “Biz Kaspiy dengizining tabiiy resurslaridan foydalanish, uning kommunikatsiya va transport imkoniyatlari bo'yicha norasmiy fikr almashdik va ushbu muammolarni hal qilish yo'llari bo'yicha o'z fikrlarimizni bildirdik. Ozarboyjonning Markaziy Osiyo bilan iqtisodiy integratsiyasiga qo'shilish imkoniyatiga kelsak, men bunga asosan tayyorligimizni bildirganimni aytishim mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarimiz juda zaif, ayniqsa Sovet Ittifoqi davridagiga nisbatan. Men bu munosabatlarni rivojlantirish va kengaytirish bo'yicha bir necha bor tashabbuslarni ilgari surganman. Hozircha bu g'oyaga munosabat ijobiy. Biz buni Qirg'iziston bilan ham, boshqa davlatlar bilan ham muhokama qildik” [12]. Demak, Ozarboyjon Prezidenti G. Aliyev sovet davlati parchalangandan keyin mustaqillikni qo'lga kiritgan Markaziy Osiyo davlatlari va o'zi rahbarlik qilayotgan davlat o'rtasida iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishning ahamiyatini yuqori baholagan.

Rossiya matbuoti. Rossiya nashri hisoblangan “Коммерсантъ” gazetasining 1995-yil 30-avgust sonida Bishkek sammiti to'g'risida tanqidiy maqola e'lon qilinadi [13]. Maqolada I.Karimovning turkiy tilli davlatlar yig'inidagi nutqi va mintaqaviy pozitsiyasi tahlil qilinadi. Unda aytilishicha, “O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ellararo yig'inda so'zni iqtisodiy birlik masalasini muhokama qilishdan boshlab, O'zbekiston Qirg'iziston, Qozog'iston bilan uch tomonlama ittifoqni mustahkamlashga katta ahamiyat berishini ta'kidladi. Shundan so'ng, I.Karimov Tojikiston va Turkmaniston rahbarlarini ushbu iqtisodiy ittifoqqa qo'shilishga chaqirdi. Bu turkiy hamjamiyatni xalqaro miqyosda institutsionalizatsiya qilish yo'lidagi birinchi qadam bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, I.Karimovning o'zi sammitda turkiy sammitlarning siyosiy lashtirilishi mumkinligidan jiddiy xavotir bildirdi va agar bu tendentsiyalar kuchayib ketsa, O'zbekistonning turkiy birlikdagi ishtirokini to'xtatishi bilan ogohlantirdi. O'zbekiston Prezidenti turkiy dunyoda integratsiya jarayonlarini faqat madaniy va iqtisodiy hamkorlik bilan cheklashni taklif qildi. I.Karimovning tashabbusi Turkmaniston va Qirg'iziston rahbarlari tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlandi”. Ushbu maqolada keltirilgan fikrlarga ko'ra, I.Karimov turkiy tilli davlatlar birligiga siyosiy emas, iqtisodiy va madaniy jihatdan ustunliklar berish tarafdori bo'lgan. Chunki, endigina mustaqillikka erishgan Ozarboyjon va Markaziy Osiyo davlatlarining bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishida, jahon iqtisodiyoti va savdosida o'z o'rnini tezroq topishi uchun turkiy tilli davlatlar birdamligi va hamjihatligi alohida ahamiyat kasb etardi.

Shu tariqa, turkiy dunyo birligi va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik aloqalari masalalari milliy va xorij matbuoti, gazeta va jurnallari yoritib boruvchi muhim mavzulardan biriga aylandi. TDT tashkil qilingach, Turkiy davlatlar o'rtasidagi o'zaro mutanosib yondashuvdagi hamkorlik aloqalarini yoritib boruvchi “Turkiy davlatlar tashkiloti” jurnali [14], “The turkic

world" ("Turkiy dunyo") [15], "Tuk time" ("Turkiy vaqt") [16] jurnallari nashr etila boshlandi. Turkiyada nashrdan chiqarilayotgan ushbu jurnallarda Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyati va yutuqlari bilan bog'liq maqolalar e'lon qilina boshlandi.

Vengriyada nashrdan chiqariluvchi "EURASIA" jurnali O'zbekistonda va boshqa turkiy davlatlarda mintaqaviy iqtisod rivojlanishi va xalqaro hamkorlik istiqbollarini qayd etib boruvchi jurnal narshriga aylandi. Ayniqsa, uning 2024-yil noyabr soni to'liq O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid mavzular yoritilgan maxsus soni sifatida chop qilindi [17].

Xulosa qilib aytganda, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD), Xalqaro valyuta jamg'armasining Moliyaviy sektorni baholash dasturi doirasida tayyorlangan hisobotlarini, Bokuda nashr qilinuvchi "Turkiy davlatlarning iqtisodiy ko'rinishi" statistik byulletenini, Turkiy davlatlar tashkiloti faoliyatiga tegishli rasmiy hujjatlarni, Respublika miqyosidagi qarorlar va farmonlarni, O'zbekiston Respublikasi vazirlik va tashkilotlarining idoraviy joriy arxiv hujjatlarini, mahalliy va xorij matbuoti nashrlarini O'zbekistonning Turkiy tilli mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik tarixi jarayonini yoritib berishga xizmat qiluvchi manbalar sifatida guruhlariga tavsiflanishi maqsadga muvofiq. Chunki ushbu manbalar o'rganilayotgan mavzu tahlilini berishda birlamchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar O'zbekistonning turkiy dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligining huquqiy asoslarini, davriy bosqichlarini, statistikasini, tarixiy jarayonlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон овози" газетаси. №136. 1996 йил 22 октябр.
2. "Xalq so'zi" gazetasi. №213. 2019-yil 15-oktyabr.
3. G'afurov S. Turkiy davlatlar tashkiloti – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. № 228. 2022-yil 8-noyabr.
4. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. №230. 2022-yil 10-noyabr.
5. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. №232. 2022-yil 12-noyabr.
6. Suvonov L. Turkiy dunyoning yagona transport makoni // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. №235. 2025-yil 14-noyabr.
7. Готовность номер один // Газета "Бакинский рабочий". №15. 24 апреля 2026 года.
8. Тюркское единение: взгляд из Ташкента // Газета "Бакинский рабочий". №123. 12 июля 2024 года.
9. Vaqif Bayramov. Türk ölkələri bir-birindən güc-qüvvət alır // "Xalq qəzeti". №66. 1 aprel 2023-cü il.
10. Türk dövlətlərinin ortaq investisiya qaynağı // "Xalq qəzeti". 22 may 2024-cü il. №106.
11. Türk dövlətləri birliyi Avrasiyada yeni güc mərkəzidir // "Xalq qəzeti". 8 oktyabr 2025-ci il. №216.
12. Интервью Президента Азербайджанской Республики Гейдара Алиева журналистам на борту самолета при возвращении с саммита в Бишкеке - 29 августа 1995 года // Газета "Азербайджан", 31 августа 1995 года.
13. Итоги саммита в Бишкеке // Газета "Коммерсантъ", №158. 30 августа 1995 года.
14. Magazine "The Organization of Turkic States", january-june 2025. Issue: 5. 164 pages.
15. Turkic world magazine. Issue 1. June, 2023. 108 pages.
16. Turk time magazine. Issue 2. Januray, 2024. 124 pages.
17. Journal "EURASIA", November 2025. 32 pages.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil). – 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.